

**QISHLOQ XO'JALIGI VA SUV SO'JALIGI IQTISODIYOTINI OSHIRISHDA
TEJAMKORLIK HAMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH**

Zokirjonova Sarvinoz Shokirjon qizi

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy Tadqiqot Universiteti, “Iqtisodiyot” fakulteti, “Buxgalteriya hisobi va audit” yo'nalishi 2-kurs talabasi

Temirxanova Mo'tabar Jurayevna

Ilmiy rahbar: “Iqtisodiyot” fanlari fan doktori, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi va suv iqtisodiyotini oshirishda tejamkorlik hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalarining o'ziga xos yechimlari yuzasidan fikr va mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, maqolada suv resurslarining nazorati, boshqarilish texnologiyasi, qaytmas suvlar kabilar ham o'z ifodasini topgan. Suv resurslarini tejash orqali qishloq xo'jaligida erishilishi mumkin bo'lgan yutuqlar yuzasidan turli xil boshqaruv usullari ham tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: Axborot kommunikatsiya texnologiyalari, raqamlashtirish, agrar soha, “rubicon” boshqaruv tizimi, “marketplace” savdo portali, “E- ijara” axborot tizimi, tomchilab sug'orish.

Bugungi zamonaviylashgan hamda raqamlashtirilgan axborot texnologiyalari rivojlangan bir davrda qishloq xo'jaligining iqtisodiyotini oshirish, shuningdek, ushbu yo'lda tejamkorlik va innovatsion texnologiyalardan foydalanilish masalasining ilg'or surilayotgan muammolardan biri bo'lishi suv tejamkorligi va qishloq xo'jaligi texnologiyalari bilan bevosita belgilanib beriladi. Bunda suv taqchilligi kabi muammolarning ilmiy-texnik jihatdan bartaraf etilishi, iqtidodiy ko'rsatkichlarning tahlil etilishi kabi masalalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Umumman olganda agro texnika masalalarining qishloq xo'jaligi resurslaridan foydalanish prinsplari orasida raqamlashtirishning moddiy-texnik ba'zasini shakllantirish yaxshi ko'rsatkichlarni yuzaga keltiradi. Bu borada “Raqamli O'zbekiston” 2030 strategiyasini tasdiqlash yuzasidan taklif etilgan fikr va mulohazalarning tub mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi. Ular:

- Qishloq xo'jaligi uchun yangi yerlarni ajratish, mavjudlarining yetarlicha suv bilan ta'minlanishini qat'iy nazorat qilish;
- Agrotexnika, agrosanoat kabilarda elektron ish faoliyatini shakllantirishning konseptual prinspliligini yuzaga keltirishning o'ziga xos xususiyatlari;
- Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ijtimoiy loyihalarda faol qo'llanilishi;

- Suv va suv manbalarining to'liq nazorati bilan shug'illanish kabi masalalar yuzasidan ilmiy-texnologik loyihalar bilan aloqadorligini kuzatish, tatbiq etish;

-Sug'orish tizimida ilmiy texnologiyalarning elektron tarzda tafqib etilishi yuzasidan izlanishlar olib borish, qolaversa, yangiliklar, stratup loyihalar bilan ishlashishning to'g'ridan-to'g'ri yo'lga qo'yilishining ahamiyatligi va boshqalar. "Qishloq xo'jaligida raqamlashtirishning mohiyati va ahamiyati haqida mutaxassislar va olimlar tomonidan fikrlar berib o'tilgan. Jumladan, V.I.Belskiyning fikriga ko'ra, raqamli texnologiyalarni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga joriy etish ushbu sohani strategik rivojlantirishning eng muhim elementlaridan biridir. Bio va nanotexnologiyalar, genetik rivojlanishdan foydalanish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xaridorlarning aniq toifalariga moslashtirish qobiliyati sohaning raqobatbardoshligini oshirishning muhim omilidir, ammo raqamli innovatsion texnologiyalardan faol foydalanmasdan turib mahalliy qishloq xo'jaligi sanoatini tezda yuqori texnologiyali sohaga aylantirish imkonsizdir".[1] Haqiqatdan ham, qishloq xo'jaligi texnologiyalaridan foydalanishning foydali jihatlari keng ahamiyat kasb etib, tarmoqlararo raqamlashtirish, korxonalar darajasida raqamlashtirish kabilar ahamiyatlidir. Bunda asosan, yer, suv kabi moddiy resurslarning yillik va oylik tejamkorlik hisobiga erishish, ularni monitoring qilish, tizimli axborotlar yaratish kabi masalalar birlamchi o'rinni tashkil etadi. Ushbu axborotlar yig'indisiga muvofiq tarzda qishloq xo'jaligida tejamkorlik prinsplarining amalga oshirilishi, qolaversa, iqtisodni tejash kabi masalalarning amaliyotiga yaxshi natijalarni beradi. Ushbu masalalarning yerning qanday yartibda rasmiylashtirilishi, hududiy chegarasi, huquqiy me'yoriy hujjatlari kabi masalalarning umumiylik, yakdillik prinsplariga asosan hal etilishi o'ziga xos tizimlilikni yuzaga keltirib chiqaradi.

Bugun dunyo hamjamiyatida suv va suv resurslarini boshqarish masalasi katta muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Shuninh uchun ham suv tizimini boshqarish borasida "Rubicon" bosqaruv tizimi, "Marketplace" elektron agrosanoat savdo portali, "Qishloq xo'jaligini mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini subsidiyalash" yagona xaborot tizimi, "E-IJARA" axborot tizimi, agro teka yuzasidan geoaxborot tizimi kabilar ham muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Qo'shimcha tarzda taqdim etilayotgan "Smart campus", "ASM yagona integratsiya platforma"lari ham qishloq xo'jaligi tizimining eng ilg'or sohalar qatorida turishi uchun asosiy vosita bo'lib xizmat qilishi yuzasidan fikr va mulohazalar mavjuddir. "Butun dunyoda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, shuningdek, qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2020-yil dekabrda «Aqlli qishloq xo'jaligi» texnologiyasini rivojlantirish strategiyasi» hamda «Aqlli qishloq xo'jaligi» texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha 2021-2023-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar» tasdiqlangan bo'lib, bunda to'rtta asosiy yo'nalishlar nazarda tutilgan:

- qishloq xo'jaligini raqamlashtirish;
- boshqaruv jarayonlari, monitoringni avtomatlashtirish; - agrar sohada biznes-startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash;

- suv resurslarini hisobga olish".[2] Haqiqatdan ham qishloq xo'jaligida "Aqlli qishloq xo'jaligi" texnologiyalarining joriy etilishida texnika va texnologiyalarning ahamiyati kattadir. Bunda, asosan, tomchilab sug'orish texnikasi yordamida suv ta'minotini tejash, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash kabi masalalar o'z yechimini topishi kuzatiladi. Barcha sohalarning yaxshi va yomon jihatlari mavjud bo'lganidek, tomchilab sug'orish texnologiyalarining qimmat ekanligi bosh masalalardan biri bo'lib, shuningdek, tomchilab sug'orish tizimining qo'llanilish shart-sharoitlari ma'lum darajada cheklanishlarga ega ekanligi bilan salbiy jihatlarni keltirib chiqaradi.

Sug'orish texnologiyalari orasida tomchilab sug'orish texnologiyasi suvning shimilish darajasi bilan bog'liq ekanligi bilan ham izohlanadi. Tomchilab sug'orish yuzasidan shuni aytish mumkinki, ushbu usul orqali begina o'tlardan chetlashish, tomchilanib turgan suvning tarkibiy qismlariga mineral o'g'itlar solish va shu kabilar ham o'ziga xos namoyon bo'ladi. "Tomchilatib sug'orish tizimini qurish katta mablag'larni tabal qiladi. Shuning uchun bu usulni yuqori rentabelli qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda, shu bilan bir qatorda boshqa sug'orish usullarini qo'llash imkoniyati bo'lmagan va katta nishabli (0,03 dan katta) yonbag'ir, suv resurslari tanqis, qiyin yer relefli, mexanik tarkibi yengil va suv eroziyasiga moyil bo'lgan tuproqlarda hamda kichik debitli toza suvmanbali maydonlarda qo'llash tavsiya etiladi".[3] Shuni aytish mumkinki, qishloq xo'jaligida kopinga yerlarning sug'orilganda qaytmas suv bo'lib ketishi natijasida suv sarfining ortishi, sho'rlanish darajasining esa kuchayib borishi natijasida suvga bo'lgan iste'mol ortib boraveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva I.M. Qishloq xo'jaligini raqamlashtirishning afzalliklari. "Ўзбекистон статистика ахборотномаси" илмий электрон журналі. 2021 йил, 2-сон
2. Jumaniyozov Nodirbek, Raxmatullayev Umarbek. "Mintaqada qishloq xo'jaligi rivojlanishidagi axborot kommunikatsiya texnologiyalarini o'rni". Ta'lim fidoiylari konferensiya.
3. Xo'jamqulov Javlonbek Baxtiyor o'g'li. "Qishloq xo'jaligida suv tejoychi texnologiyalar" maqola. Talqin va tadqiqotlar respublika ilmiy-uslubiy jurnali.